

Olimpiada topshiriqlari

Tarix 11

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Pyotr I tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri ...

- A) Rossiyaning musulmon davlatlari bilan yaqinlashtirish edi
- B) Yevropani bosib olib Rossiyaga bo'ysundirish edi
- C) Afrika territoriyasini ishg'ol etish edi
- D) Rossiyaning harbiy-dengiz flotiga aylantirish edi

2. Qachondan boshlab insonlar taqinchoqlar yasay boshladi?

- A) Eneolit
- B) So'nggi paleolit
- C) Neolit
- D) Mezolit

3. Afrikada XIV asr oxiridan mustaqil faoliyat yuritay boshlagan davlatni toping.

- A) Gana
- B) Mali
- C) Aksum
- D) Songai

4. Quyidagi qaysi hujjatga ko'ra, Britaniya Millatlar Hamdo'stligi nomli ittifoq tashkil etilgan?

- A) Myunxen kelishuvi
- B) Daues rejasi
- C) Vestminster statuti
- D) Lozanna tinchlik shartnomasi

5. Anvar Posho xotirasiga bag'ishlab "Baljuvon" marsiyasini yozgan shaxsni belgilang.

- A) Abdurauf Fitrat
- B) Cho'lpon
- C) Abdulla Avloniy
- D) Mirza Salimbek

6. Mil. avv. IV asrda Qadimgi Xorazm aholisi xo'jaligini asosan nima tashkil etgan?

- A) chorvachilik
- B) hunarmandchilik
- C) savdo-sotiq
- D) dehqonchilik

7. Sug'd alifbosi dastlab nechta harfdan iborat bo'lgan?

- A) 23 ta
- B) 25 ta
- C) 27 ta
- D) 29 ta

8. Nechinchi yilda Al-Farg'oniyning ilmiy faoliyati uchun Misrda haykal o'rnatilgan?

- A) 2001-yil
- B) 2005-yil
- C) 2007-yil
- D) 2010-yil

9. Madaminbek sovetlar bilan qaysi shaharda yarash bitimini imzolagan?

- A) Namanganda
- B) Andijonda
- C) O'shda
- D) Skobelevda

10. BMT tomonidan nechinchi yil Mirzo Ulug'bek sharafiga "Xalqaro astronomiya yili" deb e'lon qilindi?

- A) 2004-yil
- B) 2009-yil
- C) 2014-yil
- D) 2016-yil

11. Qaysi omil Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalarining barqarorligiga olib keldi?

- A) Sulton Boyazidning Amir Temurdan yengilishi
- B) Oltin O'rda davlatining Amir Temur tomonidan fath etilishi
- C) Buyuk ipak yo'lida savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlash
- D) Amir Temurning uch, besh, yetti yillik harbiy yurishlari

12. Nima sababdan Versal-Vashington tizimi yemirilib bordi?

- A) Xitoy Xalq Respublikasining tashkil topishi tufayli
- B) Millatlar Ligasining tarqatib yuborilishi tufayli
- C) SSSR va Buyuk Britaniya o'rtasida Germaniyaning reparaatsiya to'lovlari masalasidagi kelishmovchiliklar tufayli
- D) g'oliblar va mag'lublar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar tufayli

13. 1879-yilda mahalliy aholi Farg'ona viloyatining qaysi uyezdida soliq yig'ish noqonuniy tusga kirganligiga qarshi chiqib, soliqlarni kamaytirishni talab qilgan?

- A) Marg'ilon
- B) O'zgan
- C) O'ratepa
- D) Namangan

14. Turkiston o'lkasida boshlangan istiqlolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlar kimlar bo'lgan? 1) hunarmandlar; 2) chorvadorlar; 3) savdogarlar; 4) chorikorlar; 5) din ulamolari; 6) ziyolilar.

- A) 2, 3, 6
- B) 1, 3, 6
- C) 1, 4, 6
- D) 2, 4, 5

15. Qaysi voqeadan so'ng Veymar Respublikasi o'z faoliyatini yakunlagan?

- A) Myunxen shartnomasi imzolanganach
- B) Ikkinchi jahon urushi boshlangach
- C) Adolf Gitler hokimiyatdan ketgach
- D) prezident Paul fon Gindenburg vafot etgach

16. 1885-yilda Kaspiyorti temiryo'lining qurilishi va 1887-yil oxirlarida Amudaryo flotiliyasining ta'sis etilishi Xiva xonligiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

- A) Rossiyaga qaramlikni yanada kuchaytirgan
- B) xonlik iqtisodiy ahvolini ko'tarilishiga olib kelgan
- C) Buxoro bilan savdo-sotiqni rivojlantirgan
- D) Buyuk Britaniya ta'siri ortishiga olib kelgan

17. IX asr oxiri - X asr boshida qaysi Rus knyazi Vizantiya bilan manfaatli shartnoma tuzib, rus

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

Olimpiada topshiriqlari

Tarix 11

savdogarlariga Vizantiya bilan bojsiz savdo qilish imkonini yaratadi?

- A) Ryurik B) Yaroslav
C) Vladimir D) Oleg

18. XIX asrning oxirida Buxoro amirligining qaysi shaharlarida Rossiya firmalarining idora va omborxonalari mavjud bo'lgan?

- 1) Chorjo'y; 2) Kattaqo'rg'on; 3) Termiz; 4) Jizzax
A) 2, 3 B) 1, 3
C) 1, 4 D) 2, 4

19. Kamoliddin Behzod tomonidan Xotifiyning qaysi asariga miniatura chizgan?

- A) "Temurnoma" B) "Salomon va Absol"
C) "Bo'ston" D) "Zubdat ul-osor"

20. 2000-yilda Kamoliddin Behzod tavalludining necha yilligi nishonlangan?

- A) 550 yilligi B) 455 yilligi
C) 545 yilligi D) 600 yilligi

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Qaysi hududlar Baqtriyaning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan?

- A) Parfiya va So'g'd
B) Toshkent vohasi va Marg'iyona
C) Marg'iyona va So'g'd
D) Farg'ona vodiysi va Zarafshon vohasi

22. Lotin Amerikasi mamlakatlarida jahon iqtisodiy inqirozi oqibati qaysi javobda noto'g'ri berilgan?

- A) Ko'plab ishlab chiqaruvchilar xonavayron bo'ldi.
B) O'n minglab kishilar ishsiz qoldi.
C) Mehnatkashlar, aholi o'rta qatlamining umumiy yashash darajasi yomonlashdi.
D) Iqtisodiy inqiroz mintaqadagi hukmron rejimlarni jamiyatdagi tayanchidan mahrum qildi, ijtimoiy beqarorlikning o'sishiga, jiddiy siyosiy o'zgarishlarga olib keldi.

23. XIX asr 70-80-yillarda Germaniya iqtisodining gurkirab rivojlanishiga sabab bo'lgan omillarni toping.

- 1) Buyuk Britaniyadan olingan 5 mlrd marka tovon puli;
2) Germaniya tadbirkorlarining boshqa davlatlar tajribalaridan muvaffaqiyatli foydalanishi; 3) sanoatning tez sur'atlar bilan harbiylashtirilishi; 4) Afrikada Tunis, Liviya, Markoashni bosib olishi
A) 2, 4 B) 1, 4
C) 2, 3 D) 1, 3

24. Qoraxoniylar davlatida shaharlarda hunarmandchilikning qaysi sohalarini ayniqsa rivoj topdi?

- A) ko'ncilik, duradgorlik, zargarlik va miskarlik
B) to'qimachilik, temirchilik va zargarlik
C) qog'oz ishlab chiqarish, to'qimachilik va chilangarlik
D) kulolchilik, shishasozlik, miskarlik va chilangarlik

25. Qadimgi davrda ayrim xudolarni yovvoyi hayvonlar timsolida tasavvur etgan xalqqa oid ma'lumotni aniqlang.

- A) bu xalq me'morchilik va haykaltaroshlik sohalarida katta yutuqlarga erishgan
B) bu xalq qo'shni mamlakatlar bilan doimiy urish olib borgan
C) bu xalq jon bir tanadan boshqasiga ko'chib o'tishiga e'tiqod qilishgan
D) bu xalqlarning alifbosini yunonlar o'zlashtirib oladilar va ularga unli harflarni ham qo'shib qo'yadilar

26. Chexel Sotun saroyi qayerda bunyod etilgan?

- A) Sheroz B) Isfahon
C) Hirot D) Tabriz

27. Italiya fashistik davlati mamlakat rivojlanishi sur'atlarini qaysi yo'l orqali keskin oshirishga erishdi?

- A) sanoat korxonalarini ko'paytirish orqali
B) diktatura qurish orqali
C) iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri va har tomonlama aralashish
D) mashhur Rimga yurish orqali

28. Meksikada Madero islohotlari xato berilgan javobni toping.

- A) Ish kunini 10 soatgacha cheklab qo'ydi
B) Ishlab chiqarishda jarima tizimini bekor qildi
C) Milliy iqtisodni himoya qilishga intildi
D) Chet el kapitaliga keng imkoniyatlar yaratdi

29. G'aznaviylarning siyosiy nufuzi kimning davrida ortib, somoniylar tomonidan e'tirof etilgan?

- A) Ma'sud G'aznaviy B) Mahmud G'aznaviy
C) Alptegin D) Sobuqtegin

30. O'zbekiston Kompartiyasi tomonidan "Agrar inqilob"ning strategiya va taktikasi qachon tasdiqlangan?

- A) 1924-yil dekabrda B) 1925-yil noyabrda
C) 1926-yil martda D) 1927-yil fevralda